IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

MALAY VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA FEMININ OBRAZ: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL

O‘tkurova Gulzoda Qaxramon qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Toshkent, O‘zbekiston
https://doi.org/10.5281/zenodo.21371479

Annotatsiya

Mazkur maqolada malay xalq maqollari (pepatah) va o‘zbek xalq maqollarida feminin obrazning ifodalanish xususiyatlari nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikki xalq paremiologiyasida ayol obrazining lisoniy-madaniy talqinini ochib berish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, har ikki xalq paremiologiyasida ham ona obrazi markaziy o‘rin egallaydi va diniy-axloqiy asosga ega, biroq ayol obrazining leksik-grammatik ifodalanish vositalari, tasniflash tamoyillari hamda metaforik talqin xususiyatlari jihatidan malay va o‘zbek an’analari o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Tadqiqot natijalari qiyosiy paremiologiya, gender tilshunosligi va lingvokulturologiya sohalarida keyingi izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: paremiologiya, feminin obraz, gender tilshunosligi, malay pepatah, o‘zbek maqollari, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil

1. Kirish

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri bo‘lgan maqollar xalqning asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etadi. Maqollarda aks etgan obrazlar orasida ayol obrazi alohida o‘ringa ega, chunki u orqali jamiyatning oilaga, nikohga, ona-farzand munosabatlariga hamda umuman ayol-erkak munosabatlariga bo‘lgan qarashi namoyon bo‘ladi. Shu sababli feminin komponentli yoki feminin semantikali maqollarni tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki gender tilshunosligi va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Malay va o‘zbek xalqlari, garchi turli til oilalariga mansub bo‘lsalar-da (malay tili – avstroneziya, o‘zbek tili – turkiy tillar oilasiga kiradi), o‘xshash diniy-madaniy substratga, xususan islom qadriyatlariga tayanadi. Bu esa ikki xalq paremiologiyasida ayol obrazining talqinida ma’lum darajada yaqinlik bo‘lishi mumkinligini taxmin qilishga asos beradi. Ayni paytda ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzumi va lisoniy tizimidagi farqlar ayol obrazining ifodalanish vositalarida ham o‘ziga xoslikni yuzaga keltirgan bo‘lishi mumkin.

So‘nggi yillarda jahon tilshunosligida gender tilshunosligi mustaqil yo‘nalish sifatida rivojlanib bormoqda (Kirilina, 1999; Доброва, 2003). O‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan (Нурматова, 2020; Каримова, 2014; Ergasheva, 2011), biroq ularning aksariyati o‘zbek-rus yoki o‘zbek-ingliz tillari materialida olib borilgan. Malay tilshunosligida esa ayol obrazi maqollar materialida bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan (Bahiyah & Hafriza, 1998; Rahimah & Bahri, 2014; Hamdan & Radzi, 2013; Rahman, 2016), biroq bu tadqiqotlar o‘zbek paremiologiyasi bilan qiyoslanmagan. Demak, malay va o‘zbek maqollarida feminin obrazni bevosita qiyosiy jihatdan tahlil qiluvchi tadqiqot hozircha mavjud emas, bu esa mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi – malay pepatah va o‘zbek maqollarida feminin obrazning lisoniy-madaniy ifodalanish xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularni qiyosiy jihatdan solishtirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) gender va feminin tushunchalarining tilshunoslikdagi nazariy talqinlarini yoritish; 2) malay maqollarida

ayol obrazining ifodalanish shakllarini (bevosita va bilvosita) tavsiflash; 3) o‘zbek maqollarida ayol obrazining asosiy leksik-semantik ko‘rinishlarini tavsiflash; 4) ikki til paremiologiyasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida malay va o‘zbek xalq maqollaridagi feminin komponentli hamda feminin semantikaga ega birliklar tanlab olindi. Tadqiqot predmeti – ushbu birliklarning lisoniy-madaniy xususiyatlari, ularda aks etgan ayol obrazining ijtimoiy-madaniy talqini hamda ikki til paremiologiyasidagi ifodalanish vositalarining qiyosiy tahlilidir.

2. Nazariy asos va adabiyotlar tahlili

Oxford ingliz tili lug‘ati ma’lumotlariga ko‘ra, «gender» va «feminin» atamalari XII–XIV asrlardan boshlab yozma manbalarda qayd etilgan bo‘lib, dastlab grammatik jins kategoriyasini ifodalash uchun qo‘llangan (Oxford English Dictionary). Keyinchalik bu tushunchalar biologik jinsni hamda ayolga xos xususiyatlarni anglatish uchun ishlatila boshlandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab «gender» tushunchasi biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruksiya sifatida talqin qilina boshladi (Кирилина, 1999).

Bu borada fransuz faylasufi Simona de Bovuarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. U ayolni biologik jihatdan belgilangan mavjudot emas, balki ijtimoiy-madaniy hayot mahsuli – «Boshqa» (фр. l'Autre) sifatida talqin qiladi (Симона, 1997). De Bovuar antik falsafada ayol obrazining salbiy talqinlarini – Aristotelning ayolni «tabiiy nuqson» sifatida, Foma Akvinskiyning «muvaffaqiyatsiz erkak» sifatida, Pifagorning esa ayollikni betartiblik va zulmat bilan bog‘lagan qarashlarini – tanqidiy tahlil qiladi. Bu falsafiy an’ana uzoq vaqt davomida jamiyat ongida ayolni ikkilamchi va tobe mavjudot sifatida talqin qilishga xizmat qilgan, biroq de Bovuar bunga qarshi chiqib, gender tengsizligining ildizini madaniyat va ijtimoiy ongda deb ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida «gender» atamasi hali izohli lug‘atlarga to‘liq kiritilmagan bo‘lsa-da, G. Ergasheva va N. Nasrullayeva kabi tilshunoslar bu tushunchaning ijtimoiy jihatlarini o‘z tadqiqotlarida yoritganlar. Xususan, Ergasheva (2011) ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqini olib borgan.

Paremiologiya fanini ilk bor ilmiy asosda o‘rgangan olim amerikalik folklorshunos A. Teylor (Taylor, 1931) hisoblanadi. G. Permyakov (Пермяков, 1970, 1975, 1979, 1982, 1988) maqolni tugallangan mantiqiy formula sifatida talqin qilib, paremiologiyaning strukturaviy-semantik asoslarini ishlab chiqdi. V. Teliya (Телия, 1996) esa frazeologik va paremiologik birliklarda milliy madaniyat va jamoaviy tafakkurning mujassamlashuvini asoslab berdi.

O‘zbek paremiologiyasida ayol obrazi bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. Г. Нурматова (2020) o‘zbek paremiologiyasida ayol obrazining lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida ayol obrazining milliy-madaniy xususiyatlarini tizimli tarzda yoritgan. Н. Каримова (2014) o‘zbek va rus maqollarida gender munosabatlarining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilgan. М. Сафарова (2008) o‘zbek xalq maqollarining strukturaL-semantik tahlilini amalga oshirgan. D. Artikova (2026) o‘zbek va ingliz tillaridagi oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maqollarda gender xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Malay paremiologiyasida ayol obrazi ham bir qator tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lgan. A. Bahiyah va B. Hafriza (1998) malay maqollaridagi gender ideologiyasini, xususan erkak va ayol obrazining ijobiy hamda salbiy konnotatsiyalarini tahlil qilgan. Ularning xulosasiga ko‘ra, ayollarning salbiy tasvirlangan ko‘plab maqollar mavjud bo‘lsa-da, bu ayollarning malay jamiyatida past mavqega ega ekanini anglatmaydi – aksincha, ayollar jamiyatda qadrli o‘ringa ega. H. Rahimah va Sh. Bahri (2014) ham shunga o‘xshash xulosaga kelib, maqollardagi ayollarning salbiy tasviri ularni kamsitish emas, balki jamiyatda axloqiy tartibni saqlash va ayollarni to‘g‘ri tarbiyalash vazifasini bajarishini ko‘rsatadilar. R. Hamdan va S. Radzi (2013) malay maqollarida gender vakilligini tadqiq qilgan, N. Rahman (2016) esa bu mavzuni doktorlik dissertatsiyasi darajasida chuqur yoritgan.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, malay va o‘zbek paremiologiyasida ayol obrazi mustaqil ravishda, ammo ko‘p jihatdan o‘xshash nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan: har ikki an’anada ham tadqiqotchilar ayol haqidagi «salbiy» ko‘rinishdagi maqollarni kamsituvchi emas, balki tarbiyaviy-me’yoriy vazifa bajaruvchi birliklar sifatida izohlaydilar. Bu nazariy yaqinlik ikki xalqning ijtimoiy-axloqiy qarashlaridagi chuqur o‘xshashlikdan darak beradi va ularni bevosita qiyoslashni ilmiy jihatdan asoslaydi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tipologik hamda komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida malay va o‘zbek tillaridagi ayol obraziga oid maqollar to‘plandi, tizimlashtirildi va mavzu jihatdan tasnif qilindi. Komponent tahlil metodi orqali maqollarda ifodalangan asosiy semantik komponentlar (semalar) ajratib ko‘rsatildi. Qiyosiy-tipologik metod esa ikki tildagi feminin obraz ifodalanishining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot uchun material sifatida malay tili bo‘yicha B. Othman (2005) va Abdullah Hussain (2006) tomonidan tuzilgan peribahasa lug‘atlari, o‘zbek tili bo‘yicha esa T. Mirzayev va boshqalar (2005), X. Berdiyarov va R. Rasulov (1984) tomonidan tuzilgan maqollar to‘plami va paremiologik lug‘at asos qilib olindi. Tadqiqot xarakteri jihatidan nazariy-tavsifiy bo‘lib, statistik yoki miqdoriy tahlilni emas, balki sifat jihatidan chuqur lingvokulturologik talqinni maqsad qilgan.

4. Tahlil va natijalar

4.1 Malay maqollarida (pepatah) feminin obrazning ifodalanishi

Malay maqollarida ayol obrazi ikki shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchi shakl – bevosita feminin komponentli birliklar bo‘lib, ularda ayolga oid leksik birliklar ochiq ishtirok etadi: ibu (emak) – ona, isteri (bini) – xotin, gadis (anak dara) – qiz, janda – beva, nenek – buvi, bidan – doya. Ushbu birliklar orqali ayolning yoshi, oilaviy maqomi va ijtimoiy vazifasi ifodalanadi (1-jadval).

1-jadval. Malay maqollaridagi asosiy feminin komponentlar

Feminin birlik (malay)	Leksik ma’nosi	Ayol mavqei	Madaniy tasvir
anak dara / dara / gadis	turmushga chiqmagan qiz	qiz	iffat, hayo, poklik, ehtiyotkorlik
ibu / emak	ona	ona	mehr, tarbiya, avlod davomiyligi
isteri / bini	xotin	turmush qurgan ayol	nikoh, sadoqat, oilaviy mas’uliyat
janda	beva / ajrashgan ayol	beva ayol	ijtimoiy nazorat, ehtiyotkor qarash
nenek	buvi / keksa ayol	yoshi ulug‘ ayol	tajriba, maslahat, avlodlararo xotira
bidan	doya	ayollar kasbiy roli	tug‘ilish, ayollar bilimi, xalq tajribasi

Ushbu birliklar orasida ibu / emak («ona») komponenti alohida ahamiyatga ega, chunki malay jamiyatida onaga hurmat islom dini bilan chambarchas bog‘liq. Buni quyidagi keng tarqalgan pepatahda kuzatish mumkin: Syurga di bawah telapak kaki ibu («Jannat onaning oyoq ostidadir»). Ushbu maqol etimologik jihatdan hadis matnidan kelib chiqqan bo‘lib, asrlar davomida og‘zaki nutqda qo‘llanish orqali paremiologik birlik maqomini olgan.

Malay: Syurga di bawah telapak kaki ibu. So‘zma-so‘z: jannat ostida tovon oyoq ona. Ma’nosi: «Jannat onaning oyoq ostidadir» – onaga bo‘ysunish va uning roziligini olish diniy burch sifatida talqin etiladi.

Qizning ijtimoiy ahamiyati ham bir qator pepatahlarda aks etadi. Masalan, Didiklah gadis, nescaya baiklah generasi («Qizni tarbiyalasang, avlod yaxshi bo‘ladi») va Gadis itu tiang negeri («Qiz – mamlakat tayanchi») maqollari qizlarning nafaqat oilada, balki jamiyat taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xotin obrazi esa ko‘pincha oilaviy barqarorlik va vafodorlik nuqtayi nazaridan talqin etiladi: isteri yang baik penyejuk hati suami («yaxshi xotin – erining ko‘nglini tinchlantiruvchi shaxs») va isteri tiang rumah tangga («xotin – oila ustuni»).

Ikkinchi shakl – bilvosita feminin semantikaga ega birliklar bo‘lib, ularda ayolga oid leksik komponent bevosita ishtirok etmaydi, biroq maqolning tag ma’nosi ayolning iffati, oilaviy sadoqati yoki jamiyat tomonidan nazorat qilinadigan axloqiy holati bilan bog‘liq. Masalan, Kelapa ditebuk tupai (so‘zma-so‘z: «Olmaxon kokosni teshib qo‘ydi») maqoli qizning nomusi yoki bokiraligi yo‘qolgani haqidagi yashirin ma’noni bildiradi – «tashqaridan butun ko‘ringan, ichidan zararlangan» degan ramziy mazmun kasb etadi. Shunga o‘xshash, mata tidur, bantal berjaga («ko‘z uxlaydi, yostiq doim uyg‘oq») maqoli er e’tiborsiz bo‘lgan paytda vafosizlik qilgan xotin ma’nosida qo‘llaniladi. Bahiyah va Hafriza (1998) hamda Rahimah va Bahri (2014) ta’kidlaganidek, bunday salbiy ko‘rinishdagi maqollar ayollarni kamsitish uchun emas, balki jamiyatda axloqiy tartibni saqlash va ayollarni to‘g‘ri tarbiyalash vazifasini bajaradi.

4.2 O‘zbek maqollarida feminin obrazning ifodalanishi

O‘zbek maqollarida ham ayol obrazi, xuddi malay tilida bo‘lgani kabi, ona, xotin, qiz, kelin, beva va buvi kabi ijtimoiy-oilaviy mavqelar orqali ifodalanadi (2-jadval). Bu tizim malay tilidagi tizimga mazmunan yaqin bo‘lsa-da, o‘zbek tilida kelin obrazi alohida ajralib turadi – bu obraz malay maqollari tizimida alohida leksema sifatida ko‘zga tashlanmaydi, biroq o‘zbek oilaviy-ijtimoiy tuzumida kelinning oilaga moslashuvi alohida ahamiyatga ega bo‘lgani uchun paremiologik jihatdan alohida obraz sifatida shakllangan.

2-jadval. O‘zbek maqollaridagi asosiy feminin komponentlar

Feminin birlik (o‘zbek)	Leksik ma’nosi	Ayol mavqei	Madaniy tasvir
qiz	turmushga chiqmagan ayol	qiz	iffat, hayo, tarbiya natijasi
ona	farzand tug‘uvchi ayol	ona	mehr-shafqat, duo, muqaddaslik
xotin	turmush qurgan ayol	turmush qurgan ayol	sadoqat, uy-ro‘zg‘or, oilaviy mas’uliyat
beva	eri vafot etgan / ajrashgan ayol	beva ayol	ijtimoiy hamdardlik, ehtiyotkor qarash
kelin	uyga kelgan yangi xotin	kelin	moslashuv, mehnatsevarlik, sinov
buvi / kampir	yoshi ulug‘ ayol	yoshi ulug‘ ayol	tajriba, hikmat, nasihat

O‘zbek paremiologiyasida ham, xuddi malay tilidagi kabi, ona obrazi eng yuqori qadriyat sifatida talqin etiladi va bu talqin diniy-axloqiy asosga ega. Xalq orasida keng tarqalgan Ona duosi – najot va Ona ko‘ngli bolada, bola ko‘ngli – dalada kabi maqollar onaning farzandiga bo‘lgan cheksiz mehr-shafqatini hamda uning duosining muqaddasligini ifodalaydi. Bu talqin, malay tilidagi Syurga di bawah telapak kaki ibu maqolidagi diniy asos bilan mazmunan uyg‘unlashadi – har ikki xalqda ham onaga hurmat islom qadriyatlari orqali mustahkamlangan.

O‘zbek: Ona ko‘ngli bolada, bola ko‘ngli – dalada. Ma’nosi: Onaning farzandiga bo‘lgan mehri doimiy va cheksiz bo‘lsa-da, farzandning e’tibori boshqa narsalarga qaratilishi mumkin – bu orqali onalik mehrining beg‘arazligi ta’kidlanadi.

Qizga oid tasavvurlar ham o‘zbek maqollarida alohida o‘rin tutadi. Qizga qirq uyda joy kabi maqol qizning turmush qurishdan oldingi ijtimoiy erkinligi va uning kelajakda turli oilalarga

«mos kelishi» mumkinligi haqidagi xalq tasavvurini aks ettiradi. Nurmatova (2020) ta'kidlashicha, o'zbek paremiologiyasida qiz obrazi asosan iffat, hayo va tarbiya natijasi sifatida talqin qilinadi – bu jihat malay tilidagi anak dara / gadis obraziga mazmunan juda yaqin turadi.

4.3 Qiyosiy tahlil: o'xshashlik va farqlar

O'tkazilgan nazariy tahlil natijasida malay va o'zbek maqollarida feminin obrazning ifodalanishida quyidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlandi.

Umumiy jihatlar: (1) har ikki xalq paremiologiyasida ham ona obrazi eng yuqori qadriyat sifatida talqin etiladi va bu talqin diniy-axloqiy (islomiy) asosga ega; (2) ayol obrazi ikkala tilda ham ijtimoiy-oilaviy mavqega ko'ra (qiz, xotin, ona, beva, keksa ayol) tabaqalanadi; (3) ayol haqidagi salbiy ko'rinishdagi maqollar ikkala an'anada ham tadqiqotchilar tomonidan kamsituvchi emas, balki tarbiyaviy-me'yoriy vazifa bajaruvchi birlik sifatida izohlanadi (Bahiyah & Hafriza, 1998; Rahimah & Bahri, 2014 – malay tili uchun; Нурматова, 2020 – o'zbek tili uchun).

Farqli jihatlar: (1) malay maqollarida ayol obrazi ko'pincha yashirin, ramziy-metaforik shaklda (masalan, hayvon yoki tabiat obrazlari orqali: kelapa, tupai) ifodalanadi, bu esa perumpamaan turidagi qiyoslovchi birliklarning peribahasa tizimida keng qo'llanishi bilan bog'liq; o'zbek maqollarida esa metaforik ifoda kamroq, ko'proq to'g'ridan-to'g'ri, deklarativ shaklda uchraydi; (2) o'zbek tilida kelin obrazi alohida paremiologik birlik sifatida ajralib chiqadi, malay tilida esa bunday alohida ijtimoiy-lisoniy toifalashtirish kuzatilmaydi; (3) malay tilshunosligida feminin maqollarni tasniflashda ko'proq mazmuniy-funksional yondashuv (masalan, bevosita/bilvosita ifodalanish) qo'llanilsa, o'zbek tilshunosligida an'anaviy ravishda shakliy-tematik tasnif (Сафарова, 2008) ustunlik qiladi.

Bu farqlar, birinchi navbatda, ikki tilning tipologik xususiyatlaridan (malay tilining ajratuvchi, o'zbek tilining qo'shimchali-agglyutinativ tizimga ega ekanligidan) emas, balki ko'proq ikki xalqning paremiologik tadqiqot an'analaridagi metodologik farqlardan hamda madaniy-ramziy tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqadi.

5. Xulosa

Mazkur tadqiqot malay pepatah va o'zbek maqollarida feminin obrazning ifodalanish xususiyatlarini nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ikki xalq paremiologiyasi mustaqil ravishda rivojlangan bo'lsa-da, ular ayol obrazini talqin qilishda, xususan ona obrazini eng yuqori qadriyat sifatida ko'rsatishda va bu talqinni diniy-axloqiy asosga tayantirishda katta yaqinlikka ega. Shu bilan birga, ayol obrazining lisoniy ifodalanish vositalari (metaforik-ramziy yoki to'g'ridan-to'g'ri), ijtimoiy-lisoniy toifalashtirish tizimi (masalan, kelin obrazining alohida ajralib chiqishi) hamda ilmiy tasniflash tamoyillari jihatidan ikki an'ana o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Tadqiqot natijalari qiyosiy paremiologiya, gender tilshunosligi va lingvokulturologiya sohalarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, malay va o'zbek tillarini o'qitishda, tarjimashunoslik amaliyotida foydalanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu nazariy tahlilni statistik-korpusga asoslangan miqdoriy tahlil bilan boyitish, shuningdek, erkak obraziga oid maqollarni ham qiyosiy tahlilga jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullah Hussain. (2006). Kamus istimewa peribahasa Melayu. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
2. Artikova, D. (2026). O'zbek va ingliz tillaridagi oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maqollarda gender xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent.

3. Bahiyah, A., & Hafriza, A. (1998). Men and women in Malay proverbs: An analysis of Malay gender ideology. In S. Zaleha S. Hassan & Rashila Ramli (Eds.), Kedudukan dan citra wanita dalam sumber-sumber (pp. 148–158). Bangi: Institut Alam dan Tamadun Melayu Tradisional.
4. Berdiyarov, X., & Rasulov, R. (1984). O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Доброва, S. (2003). Gender i yazyk. Sankt-Peterburg: Izd-vo SPbGU.
6. Ergasheva, G. (2011). Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref. – Toshkent.
7. Hamdan, R., & Radzi, S. B. M. D. (2013). Gender representation in Malay proverbs. Journal of Language Studies, 13(2), 45–60.
8. Каримова, H. (2014). O‘zbek va rus maqollarida gender munosabatlarining lingvomadaniy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent.
9. Kirilina, A. (1999). Gender: Lingvisticheskiye aspekty. Moskva: Institut sotsiologii RAN.
10. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press.
11. Mirzayev, T., Musaqulov, A., & Sarimsoqov, B. (2005). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq.
12. Нурматова, Г. (2020). O‘zbek paremiologiyasida ayol obrazining lingvokulturologik tahlili: Filol. fan. fals. dok. (PhD) diss. – Toshkent.
13. Othman, B. (2005). Pepatah Melayu. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
14. Oxford English Dictionary. Gender; Feminine. Oxford: Oxford University Press.
15. Пермяков, Г. (1970). Ot pogovorki do skazki: Strukturno-semanticheskiye issledovaniya. Moskva: Nauka.
16. Пермяков, Г. (1975). Paremiologicheskiy minimum: Opyt sistematizatsii poslovits. Moskva: Nauka.
17. Пермяков, Г. (1979). Poslovitsy i pogovorki narodov Vostoka. Moskva: Nauka.
18. Пермяков, Г. (1982). Poslovitsa kak znak. Moskva: Nauka.
19. Пермяков, Г. (1988). Osnovy strukturnoy paremiologii. Moskva: Nauka.
20. Rahimah, H., & Bahri, Sh. (2014). Gender perspective in Malay proverbs. Middle-East Journal of Scientific Research, 22(1), 99–106.
21. Rahman, N. (2016). Gender representation in Malay proverbs (Doctoral dissertation). Universiti Malaya, Kuala Lumpur.
22. Сафарова, M. (2008). O‘zbek xalq maqollarining struktural-semantik tahlili: Filol. fan. nomz. diss. – Samarqand.
23. Симона де Бовуар. (1997). Vtoroy pol (T. 1). Moskva: Progress.
24. Taylor, A. (1931). The proverb. Cambridge, MA: Harvard University Press.
25. Телия, B. (1996). Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. Moskva: Yazyki russkoy kultury.
26. Za‘ba. (1965). Ilmu mengarang Melayu. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.